



SHASHMAQOM NASHIDASI

Hamroyev Akmal

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom

San'atiga ixtisoslashtirilgan

maktab-internati o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8017313>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil

Ma'qullandi: 05-June 2023 yil

Nashr qilindi: 08-June 2023 yil

KEY WORDS

mumtoz, shashmakom, san'at, adabiyot, ananaviy xonandalik, manaviy meros, mumtoz asarlar, Qashkarcha-yu Soqiynoma, an'ana..

ABSTRACT

Qadim merosga ega bo'lgan Shashmaqom san'ati va ahamiyati, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan maqom san'ati haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolada musiqiy merosimizni avaylab-asrab kelajak avlodga etkazish bo'yicha qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi № 3391-sonli Qarorida quyidagilar bildirilgan. Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan «Shashmaqom» YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir. Ayni vaqtda milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan etarlicha foydalanilmayotgani ta'kidlab o'tiladi.

Xalqimiz albatta, qanchalik ma'nan boy bo'lsa, shunchalik teran fikrlaydigan, o'tayotgan har bir onini sermahsul va sermazmun bo'lib o'tishiga harakat qiladi.

Keyingi yillarda yoshlarning oliy dargohlarda ilm olib, oliy ma'lumot olishlari uchun qilingan harakatlar, yangi-yangi oliygohlar tashkil etilishi, oliy o'quv yurtlariga o'qishga kiruvchilar kvotalarining ko'payishi va san'atning barcha yo'nalishlariga ijodiy imtihonlar tashkil etilib, haqiqiy iste'dod va talantlarni o'qishga qabul qilinishi o'z natijalarini ko'rsatmoqda.

Tez-tez bo'lib o'tayotgan mumtoz musiqa san'ati ya'ni maqom ko'rik tanlovlarida g'oliblikka davogarlarni uchratishimiz, albatta quvonarli holdir.

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi huzuridagi Sharq musiqasi maqom kafedrasining Yunus Rajabiy nomidagi Milliy maqom institutiga aylanishi, viloyatlardagi oliygohlarining musiqa kafedralarida maqom san'atini

o'rganish va o'rgatish yo'lga qo'yilganligi, qolaversa Respublikamizning Buxoro, Xorazm Toshkent va Fargona viloyatlarida maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maqom maktab internatlarining tashkil etilganligi, yurtimiz shahar, tumanlaridagi "Bolalar musiqa va san'at maktabi" da ananaviy cholg'u va ananaviy xonandalik bo'limlari faoliyat olib borilayotganligi bebaho ma'naviy merosimizga nisbatan juda katta e'tirofning belgisidir.

Olib borilayotgan bu islohotlar, yutuq va muvaffaqiyatlarimiz hayotimizda qanday natijalar bermoqda? Shular haqida fikr yuritsak.

Sovet tuzumi davrida san'atimizning milliy mumtoz yo'nalishi hisoblangan maqom san'atini o'rganish cheklab qo'yilgan edi. O'rta maxsus musiqa bilim yurtlarida, Konservatoriya va oliygohlarda maqom, mumtoz asarlar o'rgatilmay, hatto talabalar o'zlari qiziqib o'rganib ijro etishlariga ruxsat berilmas, faqat Evropa va Rus kompozitorlari asarlari o'rgatilar edi. Mustaqillikka erishgach bu sohani rivojlantirishga e'tibor kuchaydi. Bugungi hayotimizda milliy musiqa san'ati qanchalik darajada xalqimizni, xususan yoshlarimizning e'tiborida. Shunchalik katta musiqiy meros bo'lmish xazinaga ega bo'laturib, uni eshitib, undan lazzatlana olmasak, bu naqadar achinarli holdir. To'g'ri, maqomlarimiz salobatli, jiddiy, o'ta mukammal va murakkab ishlangan bo'lib, eshituvchini fikrlarini charxlaydi, uni ezgulik sari etaklaydi va engil-elpi dunyoqarashlardan asraydi. Qolaversa, maqomlar hammasi mungli, og'ir emas, ular orasida chiroyli, ravon, eshituvchiga yaxshi kayfiyat beruvchi Qashqarcha-yu Soqiy nomlari hatto beixtler raqsiga chorlovchi 2-3 xil ufarlar bilan boyitilgan. Buxoro Shashmaqomi ijrochisi sifatida 5-6 nafar Buxorolik maqomchilar bir necha bor chet el Gastrollarida jumladan; Evropaning Belgiya, Germaniya va Gollandiya mamlakatlarida milliy mumtoz san'atimizni namoyish etganimizda ular nihoyatda katta hayrat va e'tibor bilan qabul qilganlari, uzluksiz davomli qarsaklar bilan olqishlaganlarida bu ilohiy mo'jizaviy san'at, taqdirimiz bilan chambarchas bog'liqligini his qilib, qalblarimiz g'urur va iftixorga to'lib, ko'zlarimizda sevinch yoshlari aylandi. Shaxsan men, bizni ijrolarimizdan ko'zlarini uzmasdan tomosha qilganlarida, men ularni juda madaniyatli shinavanda ekanliklarini kuzatganman. Xush, o'zimizda Shashmaqom san'atiga xalqimiz qolaversa yoshlarimizning qiziqishi qay darajada, yillar davomida orzu qilib, niyatlar qilib o'tkazayotgan to'y marosimlarimizda qanday ashula va qo'shiqlar ijro etilmoqda va to'yga kelgan mehmonu mezbonda undan qanchalik ma'naviy ozuqa olmoqda. To'y, tadbirlarda xizmat qilayotgan xonandalarning repertuarlari ya'ni ijro dasturini nazardan o'tkazish vaqti etib keldi -, deb hisoblayman.

Yakka darslar - talabalar mukammal bilim olib, yaxshi mutaxassis bo'lib chiqishi uchun kerakli jarayon deb hisoblayman.

Bundan tashqari Respublika va viloyatlar teleradiokompaniyalar hamda xususiy televideniylar orqali efirga uzatilayotgan musiqa asarlariga e'tibor qaratilsa, hech bo'lmasa 3-4 ta zamonaviy yoki estrada janrlari asarlari orasida albatta 1-2 ta milliy mumtoz kuy qo'shiqlar eshittirilsa yoki ko'rsatilib, asar haqida qisqagina izoh berilsa, mahallalar, maktab va litseylar, oliy o'quv dargohlarida, madaniyat maskanlarida, kichik-kichik maqom kechalari, sozu suhbatlar tez-tez o'tkazilib turilsa, ota-onalar o'qituvchi ustozlar o'sib kelayotgan farzandlarimiz yosh avlodga merosimiz tarixi, an'ana va qadriyatlarimiz, milliy mumtoz musiqalarimiz haqida imkon qadar tushunchalar berib borsalar va xonadonlarda har qanaqa engil elpi, chet el musiqalari eshutilishini sekin asta kamaytirib borilsa, o'rniga milliy mumtoz ashulalar berib borilsa bu ishlar o'z samarasini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi
2. . "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi № 3391-sonli Qarori
3. O.Matyoqubov. Maqomot. " Musiqa " nashriyoti " Toshkent ". 2004 yil
4. F.To'raev. Buxoro Shashmaqomi tarixidan... " Musiqa " nashriyoti. Toshkent. 2011 yil



INNOVATIVE
ACADEMY